
Pandigon MFYda “Zakovat” intellektual o‘yinining tuman bosqichi o‘tkazildi

Bugun “Obod xonadon”, “Obod ko‘cha” va “Obod mahalla” mezonlari asosida bunyodkorlik ishlari olib borilayotgan Pandigon MFYda yana bir ma’naviy ma’rifiy tadbir o‘tkazildi.

Pandigon MFYdagi "Oq-qush" to‘yxonasida besh tashabbus olinpiadasining 2- mavsumi, tumanidagi 67 ta umumta‘lim maktablari o‘rtasida “Zakovat” intellektual o‘yinining tuman bosqichi o‘tkazildi.

Musobaqada 67 ta umumta‘lim maktablaridan tashrif buyurgan o‘quvchilar qizg‘in kurash olib bordilar. Natijada 1-o‘rinni 52-umumta‘lim maktabi, 2-o‘rinni 33-umumta‘lim maktabi, 3-o‘rinni esa 30-IDUM maktabi jamoalari egallashdi.

Tadbir nihoyasida g‘oliblar munosib taqdirlandilar. G‘olib jamolarga “Faxriy yorliq” va esdalik sovg‘alari topshirildi. Mazkur tadbirning ochilish marosimida so‘z olgan viloyat hokimi o‘rinbosari Fayzulla Qosimov musobaqa ishtirokchilariga omad tiladi.

Ma‘lumot uchun, tuman (shahar) bosqichida dastlabki uchta o‘rinni egallagan jamoalar viloyat bosqichida ishtirok etish huquqini qo‘lga kiritdi.

2023-09-15 16:53:02